



1. Algoritmlarning mantiqiy tuzilishiga ko'ra qanday turlari mavjud?
2. Qanday algoritmlarga chiziqli algoritmlar deyiladi?
3. Chiziqli algoritmlarga oid hayotiy misollar keltiring.
4. Chiziqli algoritmlar blok-sxemasi qanday tuzilishga ega?
5. Uydan maktabga kelish algoritmini aytib bering.



1. Algoritm uchun quyidagi jadvalda keltirilgan harakat (buyruq)lar to'g'ri tartibini aniqlang va uni jadvalning 2-ustuniga yozing. Algoritma nom bering.

| | |
|--|--|
| 1) poyabzalni joyiga qo'yish; | |
| 2) zinadan chiqish; | |
| 3) cho'tka bilan poyabzal yaltiragunga qadar ishqlash; | |
| 4) poyabzal changini mato bilan tozalash; | |
| 5) barchasini xonaga olib kelish; | |
| 6) poyabzal cho'tkasi va kremini joyiga qo'yish; | |
| 7) poyabzal cho'tkasi va kremini olish; | |
| 8) kremini poyabzalga surtish; | |
| 9) poyabzalni olish. | |

2. Agar uchburchakning ikki tomoni va ular orasidagi burchak ma'lum bo'lsa, uchburchak yuzini topish algoritmini so'zlar va blok-sxema orqali ifodalang.

20-DARS. TARMOQLANUVCHI ALGORITMLAR

Shunday hisoblash jarayonlari ham bo'ladiki, unda qo'yilgan ayrim mantiqiy shartlarning bajarilishiga ko'ra jarayonlar bir necha tarmoqqa bo'linadi hamda ulardan hech bo'limganda bittasi bajariladi. Bunday jarayonlar bajarilishi uchun tarmoqlanuvchi algoritmlar tuziladi.

Agar hisoblash jarayoni qandaydir berilgan shartning bajarilishiga qarab turli tarmoqlar bo'yicha davom ettirilsa va hisoblash jarayonida har bir tarmoq faqat bir marta bajarilsa, bunday hisoblash jarayonlariga tarmoqlanuvchi algoritmlar deyiladi. Tarmoqlanuvchi struktura, odatda, qandaydir mantiqiy shartni tekshirish blokini o'z ichiga oladi. Tekshirish natijasiga ko'ra, tarmoq deb ataluvchi u yoki bu amallar ketma-ketligi bajariladi. Tarmoqlanuvchi tuzilish shart tekshirish natijasiga (ha yoki yo'q) qarab ikki yo'ldan birini tanlash imkoniyatini beradi, ya'ni ko'rsatilgan tarmoqdan faqat bittasining bajarilishini ta'minlaydi.


Bu tuzilmalar, asosan, 2 xil – to'liq va qisqartirilgan ko'rinishda berilishi mumkin. Ular quyidagi sxema orqali ifodalanadi:

| Turi | So'zlar orqali | Blok-sxema ko'rinishida | Namuna |
|-----------------------------|--|---|--|
| agar - u holda; | agar shart u holda ko'rsatmalar guruhi oxiri | <pre> ha shart +--> ko'rsatmalar guruhi +--> yo'q </pre> | Agar berilgan sonning raqamlari yig'indisi 3 ga qoldiqsiz bo'linsa, u holda bu son 3 ga karrali bo'ladi. |
| agar - u holda - aks holda; | agar shart u holda ko'rsatmalar guruhi1 aks holda ko'rsatmalar guruhi2 oxiri | <pre> ha shart yo'q +--> ko'rsatmalar guruhi1 +--> ko'rsatmalar guruhi2 +--> </pre> | Agar berilgan sonning raqamlari yig'indisi 3 ga qoldiqsiz bo'linsa, u holda bu son 3 ga karrali bo'ladi, aks holda 3 ga karrali bo'lmaydi. |

1-misol. Berilgan A son 0 (nol)dan katta musbat son bo'lsa, u holda uning kvadratini hisoblash algoritmini tuzing:

- 1) boshlansin;
- 2) **A** kiritilsin;
- 3) agar **A > 0** bo'lsa, u holda 4-bandga o'tilsin;
- 4) natija **A*A** deb olinsin;
- 5) tugatilsin.

Bu misolda agar $A > 0$ bo'lsa, 4-banddag'i ko'rsatma bajariladi, aks holda, ya'ni $A \leq 0$ shart bajarilsa, 3-banddag'i ko'rsatma bajarilmaydi.



2-misol. Berilgan ikkita A va B sonlardan kichigini topish algoritmini tuzing:

- 1) boshlansin;
- 2) **A** va **B** kiritilsin;
- 3) agar **A < B** bo'lsa, 4-bandga o'tilsin;
aks holda, 5-bandga o'tilsin;
- 4) natija **A** deb olinsin va 6-bandga o'tilsin;
- 5) natija **B** deb olinsin;
- 6) tugatilsin.

Bu misoldan quyidagicha xulosa chiqarish mumkin: agar $A < B$ shart bajarilsa, 5-banddag'i ko'rsatma bajarilmaydi, aks holda, ya'ni $A > B$ bo'lsa, 4-banddag'i ko'rsatma bajarilmaydi.

